

**FOLKLOR IJROCHILARINING AKTYORLIK KO‘NIKMASINI
RIVOJLANTIRISH TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA**

ERMATOVA SADOQAT NASRULLAYEVNA

O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada bo‘lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilgan bo‘lib, maqolada folklorshunoslik va aktyorlik san’ati yuzasidan olib borilgan tadqiqot ishlari analitik tahlil etilib, uslubiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Olib borilgan tadqiqot natijalari yuzasidan folklor ijrochilarining aktyorlik ko‘nikmasini rivojlantirish yuzasidan xulosalar chiqarilgan.

Kalit so‘zlar: folklor, folklorshunoslik, aktyor, aktyorlik mahorati, sahna, diqqat, ko‘nikma, tomosha, tadqiqot.

ERMATOVA SADOQAT NASRULLAYEVNA

Independent researcher at the Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

**DEVELOPING ACTING SKILLS OF FOLKLORE PERFORMERS AS A
RESEARCH OBJECT**

Abstract. This article examines the development of acting skills in future folklore performers as a research object. It provides an analytical review of research conducted in the fields of folklore studies and acting art. Methodological recommendations have been developed based on the analysis. The results of the study serve as a basis for drawing conclusions regarding the enhancement of acting skills among folklore performers.

Keywords: folklore, folklore studies, actor, acting skills, stage, attention, skill, performance, research.

Kirish. Yangi O‘zbekiston madaniy taraqqiyotida milliy madaniyatni tiklash va rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, xalq og‘zaki ijodi – folklor,

an'anaviy san'at turlarini asrash, rivojlantirish, ularni ta'lim tizimiga kiritish borasida davlat siyosati darajasida muhim huquqiy va madaniy asoslar yaratildi. Bugungi kunda folklor san'atining asliyatini saqlagan holda uni sahna san'ati bilan uyg'unlashtirish va zamonaviy ijtimoiy-madaniy muhitga mos holda talqin etish folklor ijrochilaridan keng qamrovli aktyorlik ko'nikmalarini talab etmoqda.

“Buyuk tarixda hech narsa izsiz ketmaydi. U xalqlarning qonida, tarixiy xotirasida saqlanadi va amaliy ishlarida namoyon bo'ladi. Shuning uchun ham u qudratlidir. Tarixiy merosni asrab-avaylash, o'rganish va avlodlardan avlodlarga qoldirish davlatimiz siyosatining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biridir” [1, 29].

Zamonaviy oliy ta'lim tizimida bo'lajak folklor ijrochilarini har tomonlama yetuk, sahnada erkin va ishonchli chiqish qila oladigan, erkin ijodkor mutaxassis sifatida shakllantirish dolzarb masalalardan biri sanaladi. Xususan, ularning ijodiy faoliyatida aktyorlik ko'nikmalari, sahna nutqi va badiiy obraz yaratish salohiyati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan qaralganda, folklor ijrochiligi jarayonida nafaqat musiqiy ijro mahorati, balki badiiy ifodaning aktyorlik elementlari bilan uyg'unligi ta'lim-tarbiya jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylanmoqda.

Bo'lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko'nikmalarini rivojlantirishga oid zamonaviy va fundamental bilimlarni tizimli ravishda berish, bu jarayonda ilg'or pedagogik yondashuvlar va didaktik vositalardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Shu sababli, mazkur yo'nalishda olib borilayotgan ilmiy-nazariy tadqiqotlarni chuqur tahlil qilish, mavjud tajribalarni umumlashtirish va o'qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy vazifalaridandir.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Folklorshunoslikda “xalq ijodi” atamasining mohiyati va bu tushunchaning ma'nosi haqida turli xil fikrlar bildirilgan bo'lsa-da, xalq ijodiyotining o'ziga xos tabiati va yetakchi xossalari to'la ochib berilgan emas. Mehnat jarayonida insonning tajribasini ortishi, ongining rivojlanishi, tabiat va jamiyat haqidagi fikr-tushunchalarni obrazli so'zlar orqali tasvirlashga intilish og'zaki ijod shaklini paydo bo'lishiga turtki bo'ldi.

O'zbek folklori materiallarini izchil to'plash maqsadida o'zbek folklorshunosligi maktabining kelgusidagi rejalari quyidagilardan iborat:

H.Zarifov asos solgan ilmiy ekspeditsiya ishini yanada kengroq qamrovda o'tkazish va uning muntazamligini ta'minlash;

“H.Zarifov nomli O'zbek folklori arxivi materiallarini to'la ilmiy tavsif qilish va kataloglashtirishni amalga oshirish;

folklorshunos olimlar tomonidan qariyb 80 yil mobaynida to‘plangan arxiv materiallari va kelgusidagi ilmiy ekspeditsiyalar davomida yozib olinadigan folklor namunalari asosida “O‘zbek folklori yodgorliklari” 100 jildlik akademik nashrini tayyorlash;

folklor asarlarining ilmiy va ommabop nashrlarini tayyorlab chop ettirish; o‘zbek folklori janrlarining tarixiy asoslari, tipologiyasi va poetikasini dunyo folkloristikasining ustuvor ilmiy metodlari asosida tadqiq etish;

oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun xalq og‘zaki badiiy ijodiyoti bo‘yicha yangi darslik va qo‘llanmalar yaratishdan iboratdir” [2, 811].

Xususan, M.Jo‘rayev Samarqand, Navoiy, Buxoro viloyatlari aholisining tabiat hodisalari va osmon yoritqichlari bilan bog‘liq mifologik qarashlarini to‘pladi. M.Jo‘rayev, U.Sattarov, R.Saidovalar Buxoro va Navoiy viloyatlaridan toponimik afsonalarni yozib oldilar. M.Jo‘rayev va M.Pirmatovanning ko‘p yillik izlanishlari natijasida Buxoro, Surxondaryo, Navoiy, Samarqand, Xorazm viloyatlari hamda Qirg‘iziston respublikasining O‘sh viloyatida istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning an‘anaviy taqvimiga oid boy folklor materiallari yozib olindi.

Folklor bo‘limining ilmiy xodimlaridan X.Xolova Buxoro viloyatining Qorako‘l va Olot tumanlarida ilmiy izlanish ishlari olib borib, to‘y marosim qo‘shiqlarini to‘plagan bo‘lsa, L.Xudoyqulova Surxon vohasi aholisining bola tug‘ilishi bilan aloqador irim-sirimlari, beshik to‘yi, sunnat to‘yi va nikoh to‘yi marosimi folklorini yozib oldi. “Alpomish” dostoni yaratilganligining 1000 yilligi keng nishonlanishi munosabati bilan professor T.Mirzayev bu dostonning Berdi baxshi, Po‘lkan va ergash Jumanbulbul o‘g‘li, Bekmurod Jo‘raboy o‘g‘li, Saidmurod Panoh o‘g‘li variantlarini 1999-yilda alohida kitoblar holida to‘la nashr ettirdi.

“Bugungi kunda xalq og‘zaki ijodini saqlash va rivojlantirish uchun katta imkoniyat hamda sharoitlar yaratilgan. Respublika bo‘ylab faoliyat yuritayotgan jamoalardagi xalq ijodi namunalarning ilmiy o‘rganilayotgani, viloyatlarda ko‘plab folklor-etnografik ansambllarning mavjudligi, ijodiy faollashgan ansambllar repertuarini havaskorlikdan professional darajaga yuksaltirishga yo‘naltirilgan tadbirlar, avvalo, tomoshabinlarning estetik talablarini qondirishga qaratilgandir” [3, 35].

Muhokama va natija. Folklor-etnografik tomoshalarni yuqori saviyada tashkil etish uchun tadbir bo‘lajak folklor ijrochilaridan milliy urf-odatlarini, hududlarning o‘ziga xos shevasini, yashash tarzini, liboslari hamda raqs harakatlaridagi farqni yaxshi

bilish hamda yuqori malakali bilim talab etiladi. Aks holda, ijrodagi tabiiylikni qo‘ldan boy berish va mahalliy xususiyatlarni bir-biri bilan qorishtirib, havaskorlik darajasidagi xatolikka yo‘l qo‘yish mumkin.

Folklorshunos olimi S.Yo‘ldoshevaning fikricha, “repertuar folklor ansamblining g‘oyaviy-badiiy saviyasi va uning professional ijodiy mahoratini aniqlab beradigan ko‘zgu hisoblanadi” [9, 7]. Shu sabab, bo‘lajak folklor ijrochilari repertuarga kiritiladigan folklor asarining badiiy jihatiga, g‘oyaviyligiga, mavzuning dolzarbligiga, qo‘shiqning xalqchilligiga alohida ahamiyat berish lozim.

“Ommaviy tadbirlarda folklor ijrosiga “blok” darajasidagi nazar bilan qarash xalq tomonidan asrlar davomida shakllantirilgan tomoshaviylikni; kuy-qo‘shiqdagi an’analarni; syujetli xatti-harakatlarni; jamoaviy ijroga mo‘ljallangan ko‘p qirrali qobiliyatni; har-bir ishtirokchining mahoratini; hududiy o‘ziga xosligini to‘liq namoyish etishga yo‘l qo‘ymaydi. Demak, senariy mualliflari va rejissyorlarning xalq ijodiyoti asoslarini chuqur bilmasliklari oqibatida paydo bo‘ladigan biryoqlamalik, konservatizm folklor namunalari ijrosini bir qolipga solib qo‘yadi” [3, 68].

Tadqiqotchilarning ta’kidlashicha, “xalq ijodiyotining dastlabki namunalari – retual, mavsumiy va oilaviy-maishiy marosimlar, tabiiy sahna, dekoratsiya, ijrochilar, an’anaviy raqs va badiiy matn o‘zbek teatr san’atining etnomadaniy asoslarini belgilab berdi” [7, 40]. Folklor tomoshasi shuni ko‘rsatdiki, yoshlarga emotsional ta’sir qiluvchi teatrlashtirilgan tomoshalarda, avvalo, poetik musiqa asos bo‘lsa, ikkinchi tomondan, yangi ma’no kashf etuvchi an’anaviy marosim ijrosi hamda ijrochilar mahorati namoyon bo‘ladi. Lekin shuni ham alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, kichik shaklda tashkil qilinayotgan tadbir tomoshalarida yuzakiliklarga yo‘l qo‘yilmoqda. Bunga bayramdan bayramga bir xil repertuar va jamoalar ijrosini qayta tanlash, namoyish qilinadigan dastur mavzusining dolzarb emasligi asos bo‘lmoqda.

Folklor ijrosining badiiy mazmuni, g‘oyaviyligi va tomoshaviyligi, ya’ni rejissura bilan bog‘liq jihatlar hisobga olinmayapti. Qolaversa, folklor dasturi ijrochilari bilan tomoshabin o‘rtasidagi badiiylikka asoslangan jonli muloqotning ayrim “nazoratchilar” tomonidan chegaralanishi tadbir ishtirokchilarini faollashtirish o‘rniga ruhiyatini susaytirishga olib kelmoqda.

Folklor ijrosini bunday chegaralash asrlar davomida shakllangan, tomoshaviyligi inobatga olingan, badiiylikka asoslangan badiiy imkoniyatlarni yuzaga chiqarishga to‘sqinlik qiladi. Shu bois, ba’zi tashkilotchilarning xalq ijodiyoti asoslarini chuqur bilmasliklari ma’lum shtamlarga yoki qaytariqlarga olib kelmoqda.

O‘zbekiston hududlarida yashovchi mahalliy aholi azaldan o‘zining rang-barang ijodiy merosi bilan badiiy madaniyatimizni boyitib kelgan. “Bunda ijrochilikka asoslangan an’anaviy teatrning alohida o‘rni bor. Ular kelib chiqishiga ko‘ra, uzoq tarixga ega bo‘lib, ajdodlarimiz ijodiy salohiyati, ma’naviy va badiiy-estetik talab-ehhtiyojlari negizida ijod etilgan, bugungi kunda ham shu maqsadlarga xizmat qilib keladi” [5, 230].

Aktyorlik ko‘nikmalarini rivojlantirish jarayonida qadimiy davrlarda shakllangan ta’sirchan ifoda usullari, mumtoz adabiyotdagi obraz yaratish tajribalari, og‘zaki ijodning ifodaviy imkoniyatlari va xalq og‘zaki ijodiga xos dramatik ifoda shakllari asosiy metodik manba sifatida xizmat qiladi. Ushbu tajribalar bo‘lajak folklor ijrochilarining badiiy-estetik didini rivojlantirish, obrazni ifodali va ta’sirchan tarzda yetkazish qobiliyatini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Ayniqsa, aktyorlik ko‘nikmalarini shakllantirish jarayonida mumtoz adabiyot namunalari, og‘zaki ijod uslublari, xalq og‘zaki ijodida obraz yaratish va ta’sirchan ifoda vositalaridan foydalanish tajribalari asosiy metodik asos sifatida xizmat qiladi. Bular bo‘lajak folklor ijrochilarida badiiy-estetik didni shakllantirish, ular nutqining obrazlilik, ta’sirchanlik va jonli ifoda bilan boyitilishiga xizmat qilishi mumkin.

Shu nuqtai nazardan qaralganda, folklor ijrochiligining o‘qitish metodikasini faqat musiqiy tayyorgarlik doirasida emas, balki kompleks yondashuv asosida aktyorlik mahorati, sahna madaniyati, mimika va nutq texnikasi bilan uyg‘unlashtirilgan holda takomillashtirish zarurati yuzaga keladi. Bu esa nafaqat ijodiy salohiyatni oshiradi, balki milliy san’atimiz rivojiga xizmat qiluvchi barkamol folklor ijrochilarini tayyorlashga imkon yaratadi.

Folklor ijrochiligi – bu nafaqat matn yoki kuyni ifoda etish, balki badiiy obraz yaratish, voqeani sahnaviy shaklda jonlantirish, tinglovchi yoki tomoshabin qalbiga bevosita murojaat qilish mahoratidir. Shu bois folklor ijrochisi sahna san’atining ayrim muhim elementlariga ega bo‘lishi talab etiladi. Jumladan, aktyorlik ko‘nikmalari, ya’ni obrazga kirish, dramatik vaziyatda o‘zini tutish, sahna nutqini boshqarish, mimika, jest, tana harakati, auditoriya bilan interaktsiya kabi komponentlar folklor san’atining sahnadagi ta’sirchanligi uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega. Aktyorlik ko‘nikmalari deganda:

sahna nutqining ravonligi;

obrazga kirish va uni ifodalash qobiliyati;

sahna harakati va jest-mimik ifodaning tabiiyligi;

auditoriya bilan muloqot qilish, kontakt o‘rnatish layoqati;

dramatik tafakkur va sahnaviy uyg‘unlikni saqlay olish kabi jihatlar tushuniladi. Aynan mana shu omillar folklor ijrochisining sahnadagi ta’sirchanligini oshiradi, tomoshabinni hissiy jihatdan jalb etadi va an’anaviy madaniyatning jonli namoyishiga xizmat qiladi.

Tadqiqotchi V.E.Meyerxold shunday tamoyilni uqtirar edi:

“aktyor ijodi bu kenglikdagi plastik shakllarning ijodidir;

obrazga, sezgilarga yo‘lni, «ichki» kechinmalardan emas, balki «tashqi» kechinma xarakatidan topish lozim;

aktyorlik san’ati deganda, o‘z tanasining ta’sirchan vositalarini to‘g‘ri qo‘llay bilish tushuniladi;

rolning plastik va so‘z tasvirlarini musiqiy va ritmik tashkil etilishi;

biomexanika uslubiylotining kaliti bu – «tashqidan ichkiga» (bu yerda Meyerxold biomexanikasi Stanislavskiyning “jismoniy harakatlar uslubiga” yaqinlashadi)” [8, 213].

Matnlar asosida aktyor o‘zining jismoniy va ruhiy tabiati bilan badiiy sahna qiyofasini yarata olsa bu uning katta muvaffaqiyati bo‘ladi. “Aktyorning bosh maqsadi badiiy qiyofa yaratishdir. Aktyor ijodining o‘ziga xos xislati u bir vaqtning o‘zida ijod qiladi va ijodga o‘zi material hisoblanadi. Ijodning obekti ham, subekti ham o‘zi. Barcha san’at turlaridan aktyor ijodi o‘zgacha – bu ijod uning jussasi, ovozi, aql-idroki va tuyg‘ulariga bog‘liq” [6, 29-30].

Bo‘lajak folklor ijrochilari sahnada rol bajarayotganda diqqatni jamlay olish juda muhimdir. Chunki bo‘lajak folklor ijrochilari qay darajada jonli munosabatni vujudga keltira bilishi uning sahnadagi chin ma’nodagi diqqat e’tiboriga bog‘liq. Hamrohga qarab turishning o‘zi kamlik qiladi. Uni ko‘rish lozim. Hamroh yuzida sodir bo‘ladigan har bir ifoda, har bir imo-ishorani, sinchkovlik bilan kuzatib turishi shart. Uni eshitibgina qolmay, tinglay bilish ham zarur buning o‘zi ham kamlik qiladi. Tinglash orqali uni tushunishga harakat qilish kerak. Hatto tushunish ham kamlik qiladi. Uni sezish ham kerak.

Aktyorlik san’ati bo’yicha yuqori malakali kadrlarni tayyorlash jarayoniga o’qitilayotgan fan bo’yicha tayanch ma’lumotga ega bo’lgan, bilim, malaka va ko’nikmaga ega bo’lgan yuqori malakali o’qituvchilar, fan nomzodi va dotsentlar, fan doktori va professorlar, shuningdek tajribaga ega bo’lgan yuqori malakali mutaxassis va amaliyotchilar jalb etilishi maqsadga muvofiq [4, 14].

Aktyorlik san’atining yana bir o’ziga xos fazilati shundaki, u o’ziga ham ijodkor, ham material sifatida xizmat qiladi. Aytaylik, kulol o’z ijodida tuproq va suvdan foydalanib, bu moddiy vositalar yordamida o’z g’oyasini shaklga keltiradi. Rassom esa ranglar orqali o’z tasavvurini gavdalandiradi. Shuning uchun kulol uchun tuproq, rassom uchun bo’yoqlar qanday ijodiy material bo’lsa, aktyor uchun uning ichki kechinmalari, his-tuyg’ulari, nutqi, mimikasi, tana harakati – bularning barchasi bir vaqtda ham ijodiy vosita, ham ifoda shakli bo’lib xizmat qiladi.

Xulosa. Bugungi kunda folklor ijrochilarining aktyorlik ko’nikmalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zarurati dolzarb hisoblanadi. Bu ehtiyoj, bir tomondan, folklor san’atining zamonaviy sahna talqinida yanada jonli, ta’sirchan va emotsional ifodaga ehtiyoj ortib borayotganligi bilan bog’liq bo’lsa, boshqa tomondan, hozirgi ta’lim tizimida mavjud bo’lgan ayrim metodik bo’shliqlarni to’ldirishga qaratilgan amaliy harakatlarni taqozo etadi.

Xulosa qilib aytganda, bo’lajak folklor ijrochilarining aktyorlik ko’nikmalarini rivojlantirish bo’yicha takomillashgan metodik yondashuvni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish, bu yo’nalishda ijod qiluvchi avlodning professionallik darajasini oshirishga, shuningdek, milliy an’analarni saqlab qolgan holda ularni zamon ruhiga mos ifodalashga xizmat qiladi. Bu esa o’z navbatida, folklor san’atining jozibadorligini oshirish, tomoshabinga ta’sirchanlik darajasini kuchaytirish va ijrochilik maktabini rivojlantirish uchun muhim poydevor bo’lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. – 464 b.
2. Isroilova X. O‘zbek folklorshunosligining rivojlanishida folklorshunos olimlarning qo‘shgan hissalar / "Oriental Art and Culture" Scientific Methodical Journal. Volume 4 Issue 3 / June 2023. – B. 811-814.
3. Karimova M. Folklor-etnografik tomoshalar rejissurasining o‘ziga xos xususiyatlari. San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent: O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti, 2025. – 131 b.

4. Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent: Lesson press, 2019. – 220 b.
5. Mirzayev T., Turdimov Sh., Jo‘rayev M., Eshonqulov J., Tilavov A. O‘zbek folklori. – Toshkent: MALIK PRINT CO, 2021. – 240 b.
6. Muhammedov M. Rejissura asoslari. – Toshkent: Shoakbar bosmaxonasi, 2008. – 96 b.
7. Sangirov B. O‘zbek teatrida etnomadaniy an’analar talqini. San. fan. fal. dok. dis. – Toshkent, 2019. – 154 b.
8. Sayfullayev B., Mamatqosimov J. Aktyorlik mahorati. – Toshkent. 2011. – 388 b.
9. Yo‘ldosheva S., Sattorova G. Folklor-etnografik ansambllari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2007. – 164 b.



**Research Science and
Innovation House**